


E. SARIQOV, B. HAYDAROV,
Sh. SARIQOV, K. ALLAMJONOV

IQTISOD VA SOLIQ SABOQLARI

Umumta'lim maktablarining
5-sinfi uchun o'quv qo'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
umumta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etgan*



TOSHKENT
"YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE"
2008

65 я 72

Loyiha rahbari — O'zbekiston Respublikasi

65.261.4 я 72

Davlat Soliq qo'mitasi raisi B. Parpiyev

*Davlat Soliq qo'mitasi raisining
birinchi o'rinbosari E. Gadoyev umumiy tahriri ostida*

Taqrizchilar: F. Mirzayev, Davlat Soliq qo'mitasi, boshqarma boshlig'i;
N. Xo'jayev, iqtisod fanlari doktori, professor;
X. Xotamova, Respublika ta'lim markazi, iqtisodiy ta'lim
sektori boshlig'i.

Ushbu o'quv qo'llanma iqtisod va soliqqa oid bilimlarni ona tili, adabiyot, geografiya, tarix, mehnat va boshqa fanlar bo'yicha darslar tarkibida o'rganishni osonlashtirish maqsadida yaratildi.

O'quv qo'llanmadagi materiallarning istalganini alohida ajratib, muayyan fan bo'yicha darslarda foydalanish mumkin.

SHARTLI BELGILAR:



— Soliqqa oid material



— Tarixga nazar



— Amaliy vaziyat tahlili



— Qiziqarli material



— Mavzuga oid savol va topshiriqlar

1034849
091

65
I-98

2008/12
A 6469
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MI

Iqtisod va soliq saboqlari: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun o'quv qol./ E. S. Sariqov, B. Haydarov, Sh. Sariqov, K. Allamjonov; E. Gadoyevning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2008. - 48 b.: rasm.

I. Sariqov, E. S. va boshq.

BBK 65я72
BBK 65.261.4я72

ISBN 978-9943-309-84-5

© "Yangiyul poligraph service", 2008

© E. Sariqov, 2008

MUNDARIJA

I bob. Ehtiyojlar va resurslar

1.1. Moddiy va ma'naviy ehtiyojlar.....	4
1.2. Shaxsiy va umumiy ehtiyojlar	6
1.3. Insonning mehnat qilishga bo'lgan ehtiyoji.....	8
1.4. Ehtiyojlarning o'zgarishi va ko'payib borishi	9
1.5. Resurslar va ularning chegaralanganligi.....	11
1.6. Iqtisodiyotning asosiy muammosi.....	13

II bob. Ayirboshlash va pul

2.1. Ayirboshlash	16
2.2. Pul va uning kelib chiqishi	18
2.3. Pulning vazifalari	20
2.4. Ish haqi.....	23
2.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.....	24

III bob. Bozor

3.1. Bozor tushunchasi.....	27
3.2. Bozorning turlari	29
3.3. Narx	32
3.4. Chiqim va tannarx.....	34
3.5. Daromad. Foyda va zarar	36
3.6. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i.....	38

IV bob. Oila iqtisodiyoti

4.1. Oila	41
4.2. Oilaviy mulk va boylik	42
4.3. Oila daromadlari	42
4.4. Boylik — daromad manbai.....	43
4.5. Oila xarajatlari.....	45
4.6. Oila budjeti.....	46

I BOB



EHTIYOJLAR VA RESURSLAR

*Bu cheksiz makonda cheklidur imkon,
Bu chekli imkonga cheksizdur armon.*

1.1. Moddiy va ma'naviy ehtiyojlar

Moddiy ehtiyojlar. Yer yuzidagi jamiki tirik mavjudotlar singari odamzod ham eng avvalo **havo, suv, oziq-ovqat, issiqlik va yorug'likka** ehtiyoj sezadi. Odamzodning borlig'ini, tirikligini ta'minlovchi eng zarur bu ne'matlarsiz hayot yo'q.

Dastlab odamlar o'zlarining bu ne'matlarga bo'lgan ehtiyojini, boshga jonzotlar kabi, tabiatdan — havo, suv, meva-cheva va o't-o'lanlar, quyoshdan keladigan issiqlik va yorug'lik bilan qondirgan.

Vaqt o'tishi bilan odamlar ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik va olovdan foydalanishni o'rgandi. Natijada, turli xil ov va dehqonchilik qurollariga, kiyim-kechakka, uy-joy, ro'zg'or buyumlariga bo'lgan ehtiyojlar paydo bo'ldi. Shu tariqa odamlarning o'z tabiiy ehtiyojlarini qondirish jarayoni ularning tabiat in'omlaridan boshqa turli xil ne'matlarga, narsa va buyumlarga bo'lgan **moddiy ehtiyojini** keltirib chiqardi.

Ma'naviy ehtiyojlar. Inson — ongli mavjudot bo'lib, u fikrlash xususiyati — tafakkurga ega. Fikrlash uchun esa insonga ma'naviy ozuqa, ya'ni turli xil ma'lumotlar zarur bo'ladi, chunki bo'm-bo'sh kallada fikr ham bo'lmaydi.



Oxirgi yillarda O'zbekistonda sabzavotlar iste'moli aholi jon boshiga yiliga 120-140 kg dan to'g'ri kelmoqda. Bu Qozog'istondan (70-85 kg), Rossiyadan (80 kg) va Xitoydan (112 kg) ortiqroq, ammo rivojlangan mamlakatlardan kamroq. Misol uchun: AQSH da bir odamga 194 kg sabzavot to'g'ri keladi. Mevalar iste'moli darajasi ham shunga o'xshash.

Manba: "Экономическое обозрение", №12, 2004-y.

1. Sabzavotlarni iste'mol qilish inson organizmi uchun qay darajada zarur?
2. O'zbekistonda Qozog'iston, Rossiya va Xitoydagiga nisbatan ko'proq sabzavot iste'mol qilinishining sabablari to'g'risida nima deya olasiz?
3. Nima uchun rivojlangan mamlakatlar sabzavot iste'mol qilishga katta ahamiyat beradilar?

Kishilarning ma'naviy ozuqa — turli xil ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlari ularning **ma'naviy ehtiyojlarini** tashkil qiladi. Kishilar ma'naviy ehtiyojlarini kitob, jurnal va gazeta o'qish, radio eshitish, televizor ko'rish, kompyuterdan foydalanish, kino, teatr, sirk, muzeyga borish, turli sayohatlarga chiqish, tevarak-atrofnı kuzatish, odamlar bilan muloqotda bo'lib ma'lumot almashish kabi xatti-harakatlari bilan hamda ularga ko'rsatilgan turli xil xizmatlar orqali qondiradi.



Moddiy ehtiyojlar.



Ma'naviy ehtiyojlar.



1. Insonning hayoti uchun eng zarur ne'matlarni sanang.
2. Dastlab odamlar o'z ehtiyojlarini qanday qondirgan?
3. Odamlarning moddiy ehtiyojlari qay tariqa yuzaga kelgan?
4. Insonga ma'lumotlar nima uchun kerak?
5. Odamlar ma'naviy ehtiyojlarini qanday yo'llar bilan qondiradi?
6. Moddiy ehtiyoj bilan ma'naviy ehtiyojning o'zaro farqi nimada?

1.2. Shaxsiy va umumiy ehtiyojlar

Shaxsiy ehtiyojlar. Alohida olingan kishining faqat o'ziga tegishli ehtiyojlari uning **shaxsiy ehtiyojlarini** tashkil qiladi.

Shaxsiy ehtiyojlarga tabiiy havo, suv, oziq-ovqatlar, issiqlik va yorug'likka bo'lgan ehtiyojlar kiradi. Shu bilan birga kiyim-kechak, uy-joy, ro'zg'or buyumlari va jihozlariga, madaniy-maishiy xizmat turlari, bilim, o'zligini anglash va qadrlash, dam olish, sog'lig'ini saqlash, tozalik, sport bilan shug'ullanish, nasl qoldirish, tashqi xavf-xatardan o'zini himoya qilishga bo'lgan va yana boshqa bir qator ehtiyojlar kiradi.



Shaxsiy ehtiyojlar.

Umumiy ehtiyojlar. Kishilarning birgalikda, yonma-yon hayot kechirishi va faoliyat yuritishi ularning o'z shaxsiy ehtiyojlarini birgalashib qondirish imkoniyatini yaratdi. Natijada, ko'pchilikning manfaatlarini ifoda etuvchi, birgalashib yashashga va faoliyat yuritishga xos bo'lgan **umumiy ehtiyojlar** vujudga keldi.

Umumiy ehtiyojlar ba'zida **ijtimoiy ehtiyojlar** deb ham yuritiladi. Kimlarning manfaatlarini qamrashiga qarab, umumiy ehtiyojlarni oila, jamoa, hudud, millat, mamlakat va umuminsoniyat ehtiyojlariga bo'lish mumkin.

Oilaviy ehtiyojlar asosan oila a'zolarining shaxsiy ehtiyojlaridan tarkib topib, umumiy boshpana va ro'zg'or yuritish, uy, buyum va jihozlardan



Oilaviy ehtiyojlar.

birgalikda foydalanish, bitta qozondan ovqatlanish, bolalar tarbiyasi, oiladagi keksalarni hurmat qilish, ularning issiq-sovug'idan xabardor bo'lish kabi ehtiyojlarni ham o'z ichiga oladi.



Angor tumanidagi 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari joriy o'quv yilini yangi binoda boshladilar. Bu koshonada yoshlarning bilim olishlari uchun shart-sharoit muhayyo.

...Qumqo'rg'ondagi 64-maktab esa turar joyga mo'ljallab qurilgan tor xonalarda joylashgandi. Bobotog' qishlog'idagi bu maktabni endi bir ko'ring: ikki qavatli hashamatli dargoh. Qishki va yozgi sport o'yingohlari, toza ichimlik suvi inshootlariyu zamonaviy o'quv-tarbiya jihozlari bisyor.

Dasturga ko'ra, Surxondaryoda shu yilning o'zida to'rtta yangi maktab qurildi. 56 ta maktab mukammal rekonstruksiya qilinib, 81 tasi tubdan ta'mirlandi.

Ozod elning baxtiyor farzandlari ana shunday obod dargohlarda ta'lim olmoqdalar.

Manba «Xalq so'zi» 27. 09. 2008

1. Matnda berilgan ma'lumotlardan foydalanib O'zbekistonda ijtimoiy ehtiyojlar qondirilishi to'g'risida gapirib bering.
2. Nima uchun davlat ta'limga bu darajada katta ahamiyat bermoqda?

Forobiyning iqtisodiyot sohasidagi merosi

O'rta Osiyolik mashhur alloma, Arastuning izdoshi, uning asarlarini tahlil etgan "Ikkinchi muallim" — Forobiy (873–950) jamiyat shakllanishi uchun moddiy ehtiyojlarning rivojlanishi haqidagi ta'limotni yaratgan. Iqtisodiyot fanida muhim bo'lgan "ehtiyoj" tushunchasini ta'riflab bergan. U moddiy boyliklar yaratishda mehnatning va mehnat qurollarining o'rnini aniqlab bergan.




1. Shaxsiy ehtiyojlarga nimalar kiradi?
2. Shaxsiy ehtiyojlar nimalarga bog'liq?
3. Umumiy ehtiyojlar qanday kelib chiqqan?
4. Oilaviy ehtiyojlarga nimalar kiradi?
5. Mamlakat ehtiyojlariga-chi?

1.3. Insonning mehnat qilishga bo'lgan ehtiyoji


Odamlarning ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan xatti-harakatlari ularning mehnat qilishga bo'lgan ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Mehnat — insonning biror maqsadga qaratilgan ongli xatti-harakatlaridan iborat bo'lib, u insondan ma'lum kuch-g'ayrat sarflashni talab qiladi. Mehnatning natijasi foydali bo'lib, albatta, biror ehtiyojni qondiradi.



Mehnatning xususiyatlari.

Masalan, duradgorning deraza romi yasash uchun qiladigan xatti-harakatlarini, mehnatini olib qaraylik. Duradgor rom yasashni oldiga **maqsad** qilib, oldin hayolan reja tuzadi, xomcho't qiladi. Barcha harakatlarini ma'lum



Inson mehnatining mahsull.



ketma-ketlikda ko'zlangan maqsadga yo'naltiradi. Bu jarayonda ko'proq **Jismoniy kuch**, qisman aqliy qobiliyat sarflaydi. Mehnatining natijasi sifatida odamlar uchun kerakli, **foydali** rom yasaladi va u odamlarning romga bo'lgan **ehtiyojini qondiradi**. Duradgor romni sotib, o'zining va oilasining ehtiyojlarini qondiradi.

Inson mehnatining mahsuli — **mahsulot** deb ataladi.

Mahsulotlar moddiy narsa yoki xizmat ko'rsatish shaklida bo'lishi mumkin. Masalan, novvoy mehnati mahsuli moddiy narsa — non bo'lsa, satarosh mehnatining mahsuli — mijozning sochini olish, ya'ni u xizmat ko'rsatadi. Mahsulot yaratish jarayoni — **Ishlab chiqarish** deb yuritiladi.



Kim qancha mehnat qiladi?

Ma'lum bo'lishicha, yaponiyaliklar sayyoramizda eng ko'p mehnat qiluvchi xalqdir. Statistik hisob-kitoblarga ko'ra, har bir yaponiyalik yiliga o'rtacha 2096 soat ishlab chiqarishda band bo'lar ekan. Ikkinchi o'rinda Shveysariya – 1966 soat, amerikaliklar esa yiliga o'rtacha – 1909 soat ish bilan shug'ullanib, dunyoda uchinchi o'rinni egallab turibdi.



1. Insonning mehnatga bo'lgan ehtiyoji qanday kelib chiqqan?
2. Mehnat nima? Uning qanday xususiyatlari bor?
3. Mehnatning mahsuli nima deb ataladi?
4. Mahsulot qanday shakllarda bo'lishi mumkin?
5. Ishlab chiqarish deb nimaga aytiladi?

1.4. Ehtiyojlarning o'zgarishi va ko'payib borishi

Yer yuzidagi odamlar sonining o'sib borishi **ehtiyojlarning miqdoran o'sishiga**, ya'ni ularning ko'payishiga olib keladi. Masalan, XX asr mo-baynida yer yuzi aholisi bir necha marta ko'paydi. Natijada ularning nonga bo'lgan ehtiyojlari ham miqdor jihatidan shuncha marta oshdi.

Insonda nima ko'p? Orzu-havas ko'p. U doimo yashash sharoitini yanada yaxshilash, ko'proq qulayliklarga ega bo'lishga intiladi, tinmay harakat qiladi. Yangilikka o'ch bo'ladi. Natijada, insonning yangidan-yangi ehtiyojlari paydo bo'laveradi. Ma'lumki, oldin dehqonlar yerni ho'kiz bilan omochda haydagan. Hozir hamma joyda dalalar traktor yordamida hay-

daladi. Demak, omochga bo'lgan ehtiyoj o'rniga traktorga ehtiyoj, ayrim qoloq mamlakatlarni aytmasa, vujudga kelgan. Demak, vaqt o'tishi bilan odamlarning ayrim ehtiyojlari yo'qolib ularning o'rniga yangilari yoki mukammalloqlari kelar ekan. Shunday qilib, **ehtiyojlar to'xtovsiz yangilanib, mukammallashib turadi.**

Fan va texnika taraqqiyoti natijasida mutlaqo yangi ne'matlar, narsa va buyumlar kashf etiladi. Shu tariqa ana shu mahsulotlarga bo'lgan mutlaqo **yangi ehtiyojlar paydo bo'ladi.** Masalan, XX asming birinchi yarmigacha hech kimda televizorga ehtiyoj bo'lmagan. XX asning 50-yillarida televizor ixtiro qilindi va hammada televizorga bo'lgan yangi ehtiyoj paydo bo'ldi.

Kuzatishlarga qaraganda, keyingi 30 yil ichida inson tomonidan yaratilayotgan narsa va buyumlarning turlari ikki baravarga oshgan.

Demak, vaqt o'tishi bilan inson ehtiyojlari miqdoran doimo o'sib, mazmunan o'zgarib va mutlaqo yangilari paydo bo'lib boraveradi. Shu sababdan, **"Insoniyat ehtiyojlarining poyoni, cheki yo'q!"** deyishimiz mumkin.

Ma'lumki, insoniyatning poyonsiz ehtiyojlarini tabiat bevosita qondira olmaydi. Xo'sh, unda odamlar ehtiyojlarini qanday qilib qondirayaptilar? Bu g'oyat muhim savolning javobi shunday: insoniyat o'z tarixi davomida ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat qo'ynida sun'iy "ikkinchi tabiatni" yaratganki, uning nomi — **iqtisodiyot.**

Asrimizga kelib iqtisodiyot mahsulotni ishlab chiqarishdan boshlab iste'mol qilishgacha bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayonlar tizimidan iborat bo'lib qoldi. Endilikda u insoniyat ehtiyojlarini qondirishning asosiy vositasiga aylangan.



O'zimiz haqimizda nima bilamiz?

Darvoqe, nima bilamiz o'zi? Bilganimiz: necha kilo tosh bosamiz, mijozimizga nima yoqadi-yu, nima yoqmaydi, kuchimiz, irodamiz nimaga qodir va yana ayrim shunga o'xshagan ma'lumotlar.

Odamsod 70 yillik umr bo'yi o'rta hisobda 40 tonnaga yaqin ovqat, ya'ni hayotida 11 tonna non, 70 pud (1 pud 16,3 kilogrammga teng) tuz va 7 tonna go'sht, tuxum va baliq iste'mol qilarkan, 42 tonna suyuqlik icharkan. Bunga ona suti-yu, choy, suv va ichimliklar ham kiradi.

Nafas oladigan havo miqdorini o'lchaydigan bo'lsak, 380 ming kubometrni tashkil etadi. Yuragimiz shunchalik baquvvat ekaniki, uning kuchi har yili 900 kilogrammlik yukni 14 metr balandlikka ko'tarib chiqishga yetadi.

Miyamiz 20 milliard hujayradan iborat bo'lib, 86 million axborot va ma'lumotni eslab qolishga qodir. Miyada har daqiqada yuz mingga yaqin kimyoviy reaksiya sodir bo'ladi.

Terimizning har 6,5 kvadrat santimetrida 25 metr asab tolalari, mingdan ortiq asab nuqtalari, 6 metr qon tomirlari bor.



Iqtisodiyot — “ikkinchi tabiat”.



1. Ehtiyojlarning miqdoran o'sishini qanday tushunasiz?
2. Ehtiyojlarning mazmunan o'zgarishini tushuntiring.
3. Yangi ehtiyojlar qanday paydo bo'ladi?
4. Nega ehtiyojlarning poyoni yo'q?
5. Iqtisodiyot nima?

1.5. Resurslar va ularning chegaralanganligi

Insoniyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'ladigan barcha narsalar **resurslar** deb ataladi.

Resurslar odatda tabiiy resurslar, kapital resurslar va mehnat resurslariga bo'linadi.

Tabiiy resurslarga havo, suv, quyoshdan kelayotgan issiqlik va yorug'lik, tuproq, yer osti va yer usti boyliklari, o'simliklar va hayvonot dunyosi, xullas, odamlarga ehtiyoji uchun asqotadigan tabiatning barcha in'omlari kiradi.

Kapital resurslar deb, boshqa mahsulot turlarini yaratishda ishtirok etadigan mahsulotlarga aytiladi.

Ularning tarkibiga bino va inshootlar, asbob-uskuna va mashina-mexanizmlar, turli tuman dastgohlar va jihozlar, xomashyolar va boshqa son-sanoqsiz turdagi narsalar kiradi.

Mehnat resurslari deganda bilimi, ish tajribasi va mehnat mahorati bilan birgalikda, mehnat qilishga layoqatli kishilar, ularning jismoniy kuchi, bilimi, mahorati, tajribasi tushuniladi.



Daraxtlar — tabiiy resurslar.

Bundan buyon hamma hollarda ham ehtiyojlarni qondirish jarayonida resurslarning ishlatilishini, ya'ni ulardan foydalanishni bitta nom bilan — **resurslarning iste'mol qilinishi** deb ataymiz.

Ma'lumki, tabiatda tabiiy resurslar qanchalik ko'p bo'lmasin, baribir ularning miqdori cheklangan. Odamlar soni ham cheklangan, ularning jismoniy va aqliy imkoniyatlari ham cheksiz emas. Shu sababdan mehnat resurslari ham cheklangan.

Qaysi kapital resurslarni yoki mahsulotlarni olmaylik, ularning ibtidosi, ya'ni kelib chiqishi oxir-oqibat tabiiy va mehnat resurslariga borib taqaladi. Chunki kelib chiqishini tahlil qilinadigan bo'lsa, ular borib-borib qandaydir tabiat ne'matidan — tabiiy resurslardan hamda insonning mehnati vositasida yaratilgan, yasalgan bo'lib chiqadi. Shuning uchun tabiiy va mehnat resurslarining chegaralanganligidan kapital resurslarning ham chegaralanganligi kelib chiqadi. Natijada, **«Tabiatdagi jami resurslar chegaralangan!»** degan xulosaga kelamiz.



Soliq nima ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lsangiz kerak. Keling mamlakatimizda amalda bo'lgan soliq turlari haqida to'xtalsak. Yurtimiz soliq tizimida soliqlar ikki xil — davlat soliqlari va mahalliy soliq va yig'implarga ajratilgan.

Umumdavlat soliqlari quyidagilardan iborat:

- 1) Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i;

- 2) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) Qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) Aksiz solig'i;
- 5) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq.

Mahalliy soliq va yig'imlar quyidagilardan iborat:

- 1) Mol-mulk solig'i;
- 2) Yer solig'i;
- 3) Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliq;
- 5) Ayrim tovar turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im; Tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ruxsatnoma-patent to'lovi.

1. Soliqlarning nomiga qarab, ular haqida tahminiy tasavvurga ega bo'lish mumkinmi?
2. Sizningcha, soliqlarning qaysi turlari odamlarni chegaralangan resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishga undaydi?
3. Keyingi darsga turi soliqlar haqida ma'lumot olib keling va sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.



1. Resurslar nima?
2. Mehnat resurslari deganda nimani tushunasiz?
3. Tabiiy resurslarga nimalar kiradi?
4. Kapital resurslarga ta'rif bering.
5. Bilim olishga bo'lgan ehtiyojningizni qondirish jarayonida qanday tabiiy, mehnat va kapital resurslari iste'mol qilinadi?
6. Resurslar iste'moli deganda nimani tushunasiz?
7. Resurslar chegaralanganligini asoslang.

1.6. Iqtisodiyotning asosiy muammosi

Oldingi paragrafda resurslarning chegaralanganligi haqida aytib o'tgan edik. Xo'sh, unda resurslar inson ehtiyojlarini to'la qondirishga yetadimi? Yo'q, albatta. Chunki insoniyat ehtiyojlarining poyoni yo'q, resurslar esa, hozirgina ta'kidlaganimizdek, chegaralangan.

Inson ehtiyojlarining poyoni yo'qligi bilan resurslarning chegaralanganligi o'rtasidagi nomutanosiblik (muvozanat yo'qligi) **iqtisodiyotning asosiy muammosi** hisoblanadi.

Bu muammoni to'la-to'kis yechishning imkoni yo'q, albatta. Bunday sharoitda, ehtiyojlarni to'la-to'kis qondirib bo'lmasiligi sababli, odamlar ehtiyojlari orasidan eng muhimlarini ajratib **tanlashi**, mavjud resurslarni esa tejashi, bir so'z bilan aytganda, oqilona xo'jalik yuritib, **iqtisod** qilishlari kerak bo'ladi.

Resurslarning tanqisligi tufayli qanday qilib to'g'ri va ma'qul yo'lni tanlash insoniyat oldida har doim katta muammo bo'lib kelgan. Bu savollarga har kim o'z ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'zicha javob beradi.

Bu muammo bilan odamlar qadimdan tanish bo'lgan va uni hal qilish yo'llarini izlagan. Yunonistonda ikki ming yil oldin "Ekonomikos" (o'zbek tiliga tarjimai — "uy xo'jaligini yuritish san'ati") deb nomlangan iqtisodiyotga oid birinchi kitob yozilgan. Hozirda dunyo bo'yicha keng tarqalgan "ekonomika" (o'zbek tilida "iqtisodiyot") so'zi shu kitob nomidan kelib chiqqan.

Insoniyatning cheklangan resurslardan foydalanib, poyonsiz ehtiyojlarini to'laroq qondirishga qaratilgan, oqilona xo'jalik yuritish yo'l-yo'riqlarini **iqtisodiyot fani** o'rgatadi.

Ibn Sino iqtisodchi ham bo'lgan!



Tibbiyot ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino (980–1037) tibbiyot bilan bir qatorda iqtisodiyot bilan ham shug'ullangan. U aytadi: "Hayvon tabiat ne'matlariga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvon tabiat ne'matlarini o'zlashtirib oladi, odam esa o'z mehnati bilan o'ziga ovqat, kiyim, joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishi kerak".



Soliq kodeksining 258-moddasiga ko'ra, inson yer osti va yer usti suvlaridan foydalanganligi uchun soliq to'lashi kerak bo'ladi. Shuningdek, **243-moddasiga ko'ra**, yer ostidan foydali qazilmalarni kovlab oluvchi har qanday odam yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni to'laydi.



Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari (2008-yil)

Soliq solinadigan foydali qazilmalar	Soliq stavkasi (%da)
Tabiiy gaz	30,0
Neft	20,0
Ko'mir	3,8
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Temir	3,9
Tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	1,7
Sement xomashyosi	2,0
Shisha xomashyosi	1,8
Qurilish qumlari	3,0

1. Qanday yer osti boyliklarini bilasiz?
2. Ularning qaysilari bizning mamlakatimizda bor?
3. Sizningcha, nima uchun Davlat tomonidan yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq belgilangan? Ulardan tekin foydalansa nima bo'ladi? Axir biz ularni umumxalq boyligi deb atadik-ku?
4. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari ayrim qazilmalar uchun baland, ayrimlari uchun kamroq qilib belgilangan. Buning sababi nima bo'lishi mumkin?



1. Resurslar insoniyat ehtiyojlarini qondirishga yetadimi?
2. Iqtisodiyotning asosiy muammosi nima?
3. Tanlash, iqtisod qilish deganda nimani tushunasiz?
4. Tanlov jarayonini misollarda tushuntiring.
5. Iqtisodiyot so'zi qayerdan kelib chiqqan?
6. Iqtisodiyot fani nimani o'rgatadi?

II BOB



AYIRBOSHLASH VA PUL

*“Pul topish uchun oldin
pul sarflamoq kerak!”*

Plavt

2.1. Ayirboshlash

Iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini ishlab chiqarish bo'lsa, undan keyingi bo'g'ini ayirboshlashdir. Bu bobda ana shu haqida suhbatlashamiz.

Ma'lumki, dastlab odamlar o'z ehtiyojlarini tabiat in'omlari evaziga qondirganlar. Keyinchalik esa inson tabiat in'omlariga qanoatlanmasdan, turli-tuman yangi narsalarga ehtiyoj sezib, *dehqonchilik va hunarmandchilikni o'rgangan* va turli-tuman mahsulotlar ishlab chiqarish evaziga ularni qondira boshlagan.

Har bir qabila o'zi uchun kerakli oziq-ovqat mahsulotlarini, kiyim-kechaklarni va oddiy ish qurollarini o'zi ishlab chiqargan va o'zi iste'mol qilgan.

Bunday xo'jalik iqtisodiyotning eng dastlabki shakli bo'lib, u **natural xo'jalik** deb yuritiladi. Natural xo'jalikning har bir a'zosi asta-sekin muayyan mahsulot turini ishlab chiqarishga moslasha borgan. Dehqon

oziq-ovqat mahsulotlarini, hunarmand ish qurollarini ishlab chiqargan. Quruvchi uy qurgan, tikuvchi esa kiyim-kechak tikkan.

Vaqt o'tishi bilan har bir kasb egasi o'z mahsulotini boshqalarning mahsulotiga almashtira boshlagan. Bu jarayonni iqtisodiyotda **ayirboshlash** deb atashadi. Masalan, dehqon 2 qop donni hunarmand bilan bitta o'roqqa almashgan. Duradgor esa o'ziga kerakli kiyim-kechakni tikuvchidan 1 dona romga ayirboshlash evaziga olgan va hokazo.



Tovar ayirboshlash.

Bir mahsulotni, ikkinchi mahsulotga ayirboshlash hozirgi iqtisodiyotda **barter** deb ham ataladi.

Ayirboshlash maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulot **tovar** deb ataladi. Tovarni **mol** deb ham atashadi.

Aytaylik, dehqon 50 qop kartoshka yetishtirib, uning 2 tasini o'z ehtiyojlari uchun ishlatdi. Qolgan 48 tasini esa, o'ziga kerakli boshqa mahsulotlarga ayirboshlash uchun bozorga chiqardi. Bu holatda dehqon yetishtirgan 50 qop kartoshkadan faqat 48 qopigina tovar hisoblanadi.

Aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan barcha tovarlar — **xalq iste'moli mollari** yoki **iste'mol tovarlari** deb yuritiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarini yuritish uchun zarur bo'lgan tovarlar **ishlab chiqarish vositalari** deb ataladi. Ishlab chiqarish vositalariga mashina, uskuna, asboblari, bino, yer, xomashyo, yoqilg'i, energiya manbalari va materiallar kiradi.

Ma'lumki, ishchi korxonada ishlab, o'z mehnati evaziga oylik maosh — pul oladi. Ya'ni ish kuchi pulga ayirboshlanadi. Demak, ish kuchi — mehnat ham tovar ekan.




1. Natural xo'jalik deb nimaga aytiladi?
2. Ayirboshlash qanday kelib chiqqan?
3. Tovar deb nimaga aytiladi?
4. Tovar bo'lgan va bo'lmagan mahsulotlarga misollar keltiring.
5. Iste'mol tovarlariga nimalar kiradi?
6. Ishlab chiqarish vositalari qanday tovarlardan iborat?

2.2. Pul va uning kelib chiqishi

Tovarlarni ayirboshlash jarayoni zamon o'tishi bilan murakkablashib noqulay bo'lib borgan. Aytaylik, etikdo'zga non, novvoyga un, tegirmonchiga bug'doy, dehqonga omoch va temirchiga etik kerak bo'lsin. Bu holatda, etikdo'z birgina nonga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun o'zi tikkan etikni oldin omochga, omochni bug'doyga, bug'doyni unga va eng oxirida unni nonga almashtirishga majbur bo'lgan.

Bunday vaziyatda hamma o'zi ishlab chiqargan mahsulotini jon-jon deb almashtiradigan boshqa bir hammabop (universal) maxsus tovarga — pulga ehtiyoj paydo bo'lgan. Bunday maxsus tovar — pul rolini turli hududlarda, turli davrlarda turli xil tovar o'ynagan. Masalan, Misr, Qadimgi Yunoniston, Rimda, arab va hind qabilalarida pul rolini chorva mollari bajargan.

Shimoliy mamlakatlarda — mo'yna va teri, Afrika xalqlarida — chig'anoqlar va fil suyaklari, Qadimgi Misrda — bug'doy, Xitoyda — tuz, Mo'g'ulistonda — choy pul vazifasini bajargan. Bu tovarlar ba'zi joylarda o'zining hammabopligi ya'ni hammaning ehtiyojini qondirish xususiyatiga ko'ra, ba'zi joylarda esa kamyoblik xususiyatlariga ko'ra pul vazifasini o'tagan.



To'yga savat ko'tarib

Onalarimiz to'yga savat ko'tarib borish natural xo'jalik hukm surgan davrlardan qolgan eng qadimiy odatlardan biri ekanligini bilisharmikan?

Qadim zamonlar — pul hali kashf qilinmagan paytlarda odamlar bir-birlariga mehmonga borishayotib, o'zlaridagi ortiqcha miqdorda bo'lgan mahsulotlarni ro'zg'origa zarur bo'lgan boshqa mahsulotga

almashtirish maqsadida ko'tarib olishar ekan. Mezbon mehmonlarning olib kelgan narsalari o'rniga o'zida bor ortiqcha mahsulotlarni berib kuzatib qo'yar ekan. Shu tariqa, bu odat bizning davrlargacha yetib kelgan.

Odamlar metallni qayta ishlashni o'rganganlaridan so'ng, **metall pullar** paydo bo'lgan. Ularning shakli turlicha, to'rtburchak, uchburchak, dumaloq, yassi plastinka ko'rinishida bo'lib, mis, temir, jez (bronz) kabi metallardan yasalgan.

Keyinchalik muomalada qimmatbaho metallar — **oltin va kumushdan yasalgan pullar** paydo bo'lgan. Oltin va kumush pullarning pul o'rnida ishlatilgan boshqa tovarlarga qaraganda qator afzalligi bo'lgan.

Ana shu afzalliklariga ko'ra, oltin va kumush pullar uzoq yillar davomida asosiy muomala vositasi vazifasini o'tagan.


Ilk tangalar

Ilk tangalar Xitoyda eramizdan avvalgi XII asrda muomalada bo'lgan. Besh asr o'tgandan so'nggina tangalar Yevropada, Yunonistonda chiqarila boshlagan.

Eng og'ir tangalar

Metalldan ishlangan tangalar ichida eng og'iri Shvetsiyada 1659-yilda chiqarilgan 10 dalerlik mis tangasi bo'lib, uning massasi 17,5 kg bo'lgan.

Shuningdek, Hindistonda 1628—1657-yillar hukmronlik qilgan boburiylar sulolasining vakili Shohjahon davrida chiqarilgan metall tangalarning massasi 2,3 kilogramgacha, diametri 13 santimetrgacha bo'lgan.



Turi xil og'irlikka ega bo'lgan oltin va kumush bo'laklari pul sifatida ishlatilganda, har safar ularni tarozida tortishga to'g'ri kelgan. Bu noqulaylikni bartaraf etish uchun ma'lum og'irlikka va shaklga ega bo'lgan va muhr bilan og'irligi kafolatlangan **tangalar** muomalaga kiritilgan. Vaqt o'tishi bilan tangalarning ham kamchiliklari ko'rinib qolgan. Oltin va kumush tangalar qo'ldan qo'lga o'tib yeyilgan va yengillashib qolgan. Bu esa

o'z navbatida ularning boshlang'ich qiymati, ya'ni boshqa tovarlar bilan ayirboshlash qobiliyatining kamayishiga olib kelgan.

Bu muammoni yechishga bo'lgan harakatlar natijasida qog'oz pullar paydo bo'lgan. Birinchi qog'oz pullar 812-yilda Xitoyda zarb qilingan, keyinchalik esa boshqa davlatlarda ham chiqarila boshlangan.



1. Tovar almashtirish jarayoni qanday noqulayliklarga ega bo'lgan?
2. Pul deb nimaga aytiladi?
3. Nima sababdan pulga ehtiyoj paydo bo'lgan?
4. Qanday tovarlar pul vazifasini bajargan?
5. Oltin va kumush pullarning qanday afzalliklari bo'lgan?
6. Tangalar nima sababdan kelib chiqqan?
7. Qog'oz pullarning paydo bo'lishiga nima sabab bo'lgan?

2.3. Pulning vazifalari

Qog'oz pullarning kashf etilishi insoniyat tarixida beqiyos ahamiyat kasb etib, iqtisodiyot taraqqiyotiga katta turtki bergan.

Xo'sh, hozirgi davrda pul qanday vazifalarni bajarmoqda?

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, birinchidan, pul bu tovarning qiymatini o'lchash vositasidir. Har bir tovarning qiymati pul yordamida o'lchanadi. Tovarning pulda ifodalangan qiymati uning narxi deb yuritiladi.

Ikkinchidan, pul bu muomala vositasidir. Pul yordamida tovarlar bir-biri bilan ayirboshlanadi. Natijada tovar-pul almashuvi ro'y beradi.

Uchinchidan, pul — boylik jamg'arish vositasidir. Tovarni pulga almashib, tushgan pulga boshqa tovar olmasdan, uni ma'lum vaqtgacha saqlash, ya'ni jamg'arish mumkin. Jamg'arilgan pul keyinroq sarflash yoki bir yo'la katta miqdorda mablag' talab qiladigan maqsad uchun to'planadi.



Hozirgi davrga kelib har bir davlat o'zining puliga ega. Ular asosan qog'oz pul yoki tanga ko'rinishida zarb etiladi.

Bizning mamlakatimiz pul birligi **so'm** bo'lib, 1 so'm — 100 tiyinga teng qilib belgilangan.



narxi – 1350 so'm



AQSH pul birligi **dollar** bo'lib, 1 dollar – 100 sentga teng.

Buyuk Britaniya pul birligi esa **funt sterling** bo'lib, 1 funt sterling – 100 pensga teng.

Komputer texnologiyasining rivojlanishi natijasida hozirda elektron **plastik kartochkalar** ko'rinishidagi elektron pullar paydo bo'ldi. Ularni pulning mukammal shakli deyish mumkin.



AQSH dollari



**Buyuk Britaniya
funt sterlingi**



Yevro



Kanada dollari

Ayrim mamlakatlar pullari.

Bu kartochkalar komputer disketlariga o'xshagan bo'lib, ularda pul egasi haqida, pul miqdori va qayerda, qaysi bankda saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar yozilgan bo'ladi. Kartochka do'kondagi maxsus moslamaning (kassaning) tegishli tirqishiga tiqilib, zarur pul miqdori xaridorning bankdagi jamg'armasi hisobidan sotuvchi hisobiga o'tkaziladi. Shuningdek, kartochka egasi ko'chalarga, savdo binolariga o'rnatilgan **bankomat** deb ataluvchi maxsus (quti, sandiq shaklidagi) moslamalardan naqd pul olishi mumkin. Buning uchun u o'z kartochkasini bankomat tirqishiga tiqib faqat o'zi biladigan raqamni tersa kifoya.




Elektron kartochkalar.

MIRZO ULUG'BEKNING IQTISODIY VA SOLIQ ISLOHOTLARI

Mirzo Ulug'bek o'zining podsholik, olimlik, mutafakkirlik faoliyatida ulug' bobosi Amir Temur vasiyatlariga, uning ko'rsatmalariga to'la asoslandi. Iqtisod ilmiga, iqtisodiyotni rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlashga katta e'tibor berdi. U shunday iqtisodiy o'z-garishlar (islohotlar) qildiki, bular oqibatida iqtisodiy inqirozlarning oldini oldi, davlat qudratini yuksak darajaga ko'tardi.

Uning soliqlarni tartibga solish va pul muomalasini barqarorlashtirish, pulning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ko'rgan chora tadbirlari tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, u xiroj (soliq)ning miqdorini belgilashda tabaqalashtirish yo'lini tutdi, ya'ni hirojni yerning shart-sharoiti, unumdorligi, bozorlarga yaqin-uzoqligi kabi omillarga qarab belgiladi. Iqtisod ilmining hozirgi tushunchasi bilan aytganda, yer rentasi ta'limotini asoslashga harakat qildi. U soliqlarni pul shaklida to'lashni afzal deb bildi va shunday soliq shaklini ijtimoiy adolatga hizmat qiladi, deb bildi.



1. Pulning kashf etilishi qanday qulayliklarga olib keldi?
2. Pulning qanday vazifalarini bilasiz?
3. Qaysi davlatlarning pul birliklarini bilasiz?
4. Elektron pul kartochkalaridan qanday foydalanishni bilasizmi?

2.4. Ish haqi

Har bir korxonada turli xil kasbdagi kishilar mehnat qiladi. Mehnatlariga yarasha ish haqi oladi.

Mehnatga haq to'lash mezonlari turlicha bo'lib, turlicha nom bilan yuritiladi.

Bajarilgan ish hajmiga qarab to'lanadigan pul — **ishbay ish haqi** deb ataladi.

Ishni bajarish uchun ketgan vaqtga qarab to'lanadigan pul — **vaqtbay ish haqi** deb ataladi.



Ba'zi korxonalarda ish haqi ishbay, ba'zilarida esa vaqtbay bo'ladi. Bu bajariladigan ish xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Odatda, ko'pchilik korxonalarda ish haqi vaqtbay bo'lib, bir oyda bir (yoki ikki) marta beriladi. Shu sababdan, ish haqini — **oylik maosh** yoki qisqacha **oylik** deb ham atashadi.

Masalan, maktabda o'qituvchilar vaqtbay ish haqi oladilar. Ular bir oy davomida har haftada 20 soatdan dars o'tishi lozim. Buning evaziga ularga ma'lum miqdordagi pul — ish haqi to'lanadi. Agar o'qituvchi bir haftada 20 soat emas, 30 soat dars o'tsa, unga mos ravishda bir yarim marta ko'p maosh beriladi.

Ba'zi ishlab chiqarish korxonalarida ish haqi ishbay, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga qarab belgilanadi. Masalan, korxonada dastgohda tayyorlagan har bir detal uchun 1000 so'm miqdorida haq to'laydi. Agar ishchi oy davomida 60 dona detal tayyorlasa, mos ravishda oylik ish haqi $60 \times 1000 = 60000$ so'mni tashkil qiladi. Agar 120 ta detal tayyorlasa, $120 \times 1000 = 120000$ so'm ish haqi oladi.

Ma'lumki, turli kasb egalari turlicha ish haqi oladi. Nega shunday deb o'ylaysiz? Ish haqi miqdori nimalarga bog'liq?

Kimning ish haqi ko'p?



AQSh mehnat vazirligining aytishicha, mamlakat zavod-fabrikalarining ishchilari ish haqi bo'yicha dunyoda 13-o'rinda turar ekanlar. Ular bir soatda o'rta hisobda 14,77 dollar ish haqi oladi. Norvegiya,

Germaniya, Shvetsiya, Shveysariya, Finlandiya zavod-fabrika ishchilari Amriqodagi hamkasblariga nisbatan ko'p haq oladilar. Masalan, Norvegiyada 1 soatlik ish haqi 21,86 dollarni, Germaniyada — 21,53, Shvetsiyada — 20,93, Shveysariyada — 20,83, Finlandiyada esa 20,76 dollarni tashkil etadi.



1. Ish haqi deganda nimani tushunasiz?
2. Mehnatga haq to'lashning qanday turlari bor? Misollar keltiring.

2.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Soliq qonunchiligida soliq to'lovchilar ikkiga — yuridik va jismoniy shaxslarga bo'lingan. Mamlakatimiz fuqarolari, yurtimizga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi yoq odamlar — jismoniy shaxslar deya ataladi.

Sodda qilib aytganda, har qanday odamni jismoniy shaxs deb atash mumkin.

Ma'lumki, har kishi hayot kechirish uchun mehnat qilib, ma'lum miqdorda daromadga ega bo'ladi.

Jismoniy shaxs daromadiga:

- ish haqi, maosh;
- jismoniy shaxsning mulkiy daromadi;
- jismoniy shaxsning tadbirkorlikdan oladigan daromadi kiradi.

Ish haqi hamda tadbirkorlikdan olinuvchi daromad haqida siz tasavvurga egasiz. Jismoniy shaxsning mulkiy daromadiga kelsak, omonat foizlari, dividendlar, mol-mulkni (masalan avtomobilni) ijaraga berishdan olinuvchi daromadlar — **mulkiy daromadlar** deyiladi.

Qonunga ko'ra, u o'z daromadi hisobidan soliq to'lashi lozim. Ushbu soliq — **jismoniy shaxsdan olinadigan daromad solig'i** deyiladi.



Mamlakatimizda 1998-yili jismoniy shaxslarning daromadidan olinuvchi soliq stavkasi 5 pog'onali, ya'ni 15, 25, 35, 40, 45 foiz qilib belgilangan edi. 2000-yili 4 pog'onali, ya'ni 15, 25, 36, 40%, 2002-yildan e'tiboran 13, 23, 33%li uch pog'onali qilib belgilandi.

1. Soliq stavkalarining bunday o'zgarishlari nima maqsadda amalga oshirilgan bo'lishi mumkin?
2. Bunday o'zgarishlar odamlarga qanday qulayliklar yaratadi?

Jahondagi aksariyat mamlakatlarda bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham ushbu daromad solig'i progressiv, ya'ni o'suvchi soliq hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq stavkalari (ya'ni olinadigan soliq miqdori) Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili qaytadan ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari (2008-yil)

Jami daromad miqdori	Soliq summasi
Eng kam ish haqining besh baravari miqdorigacha	Daromad summasining 13 foizi
Eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan (+1 so'm) o'n baravari miqdorigacha	Eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan olinadigan soliq + besh baravardan oshadigan summaning 18 foizi
Eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan (+1 so'm) va undan yuqori summadan	Eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan olinadigan soliq + o'n baravardan oshadigan summaning 25 foizi

Misol uchun bir odam (ya'ni jismoniy shaxs)ning ish haqi 300 000 so'mni tashkil etadi. O'sha payt uchun eng kam ish haqi davlat tomonidan 25 000 deya belgilangan bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi quyidagicha aniqlanadi:

- $25\ 000 \cdot 5 = 125\ 000$ (eng kam ish haqining 5 barobari)
- $125\ 000$ so'mning 13 foizi = 16 250 so'm
- $25\ 000 \cdot 10 = 250\ 000$ (eng kam ish haqining 10 barobari)
- $16\ 250$ so'm + $((250\ 000 - 125\ 000)$ so'mning 18 foizi) =
= 16 250 so'm + 22 500 so'm = 38 750 so'm.
- $38\ 750$ so'm + $((300\ 000 - 250\ 000)$ so'mning 25 foizi) =
= 38 750 so'm + 12 500 so'm = 51 250 so'm.

Demak jismoniy shaxs davlatga 51 250 so'm miqdorida daromad solig'i to'lashi kerak.

Yuridik shaxslar (ya'ni firma, korxonalar va hokazo) tashkil etmay yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar uchun soliq stavkalari qat'iy qilib belgilangan. Ya'ni daromad solig'idan farqli o'laroq, u progressiv (o'suvchi) yoki regressiv (kamayuvchi) bo'lmaydi. Ushbu soliq stavkalaridan ayrimlari quyidagi jadvalda berilgan (2008-yil uchun):

Faoliyat turi	Toshkent shahri	Viloyat shaharlarida	Rayonlar, qishloq joylari bilan birga
1. Chakana savdo: – oziq-ovqat tovarlari uchun;	12,0	7,5	4,0

	– nooziq-ovqat tovarlar uchun; – oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarni aralashtirib savdo qilganda.	13,5	9,0	4,5
2.	Maishiy xizmat (3-punktida ko'zda tutilganlaridan tashqari)	7,5	3,0	1,5
3.	Sartoroshlik, manikyur-pedikyur-larga o'xshash xizmatlar	8,5	4,5	3,0

Bundan tashqari, agar yakka tadbirkor bir necha xil faoliyat turi bilan shug'ullansa, har bir tur uchun alohida soliq to'laydi.



Hortum qishlog'ida yashovchi Jamshid aka do'konda sotuvchi bo'lib ishlaydi. Uning maoshi 150 000 so'mni tashkil etadi, do'kondagi ishini soat 15:00da tugatib, kechki paytgacha uyi yaqinidagi sartoroshxonada ota kasbi bo'lmish, sartoroshlik bilan ham shug'ullanadi. Buning uchun u o'zi yashab turgan tuman hokimiyatidan yakka tartibdagi tadbirkorlik ruxsatnomasi (patent)ni olgan.

1. Jamshid akaning qaysi daromadlari qanday atalishini ayting.
2. Eng kam ish haqi 25 000 so'mni tashkil etadi deb olsak, Jamshid akadan ushlanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini aniqlang.
3. Agar Jamshid aka sartoroshlikdan oyiga 120 000 som ishlasa, u holda uning tadbirkorlikdan topgan daromadidan qancha soliq undiriladi?



1. Jismoniy shaxslarning daromadlari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini kimlar to'laydi?
3. Yakka tartibdagi tadbirkorlikka misol bo'la oluvchi faoliyat turlarini sanang.
4. Bu faoliyat turlaridan olinuvchi daromadlar solig'i qay tarzda to'lanishini ayting.

III BOB



BOZOR

3.1. Bozor tushunchasi

Hech dehqon bozoriga kirib ko'rganmisiz? Bozorda asosan ikki toifadagi odamlarni uchratasiz. Birinchisi — savdo rastalariga o'z mahsulotlarini, tovarlarini yoyib o'tirgan **sotuvchilar**, ikkinchisi — o'zlariga zarur tovarlarni sotib olish uchun bozorga kelgan **xaridorlar**.

Sotuvchilarning maqsadi — tovarlarini pulga almashtirish, ya'ni ularni sotish, xaridorlarning maqsadi esa — pullarini o'zlariga kerakli tovarlarga almashtirish, ya'ni tovar sotib olish.

Sotuvchi bilan xaridor o'rtasida tovarni pulga almashtirish jarayoni, qisqa qilib aytganda "oldi-sotdi" deb ataladi.



Oldi-sotdi.

Tovarlarning oldi-sotdisi bozorlarda amalga oshiriladi.

Siz odamlar gavjum bo'lib savdo-sotiq qiladigan joy sifatidagi, dehqon bozori, avtomobil bozori, kiyim-kechak va buyumlar bozori kabi bozorlarni yaxshi bilasiz. Shunday bo'lsa-da, iqtisodiyotda bozor tushunchasi ancha keng ma'noda qo'llaniladi.


Hamma sotuvchi va xaridorlar o'rtasidagi jami oldi-sotdi jarayonlarni bitta nom bilan bozor deb ataymiz.

Demak, iqtisodiyotning ikki qutbi — ishlab chiqarish va iste'molni tovarlar oldi-soldisi bilan bog'lab turadigan jarayon bozor ekan.

Bozorda bu ikki tomondan qaysi biri — sotuvchi, qaysi biri — xaridor? Bu jarayonda har ikki tomon ham xaridor, ham sotuvchi sifatida ishtirok etadi.

Ishlab chiqaruvchi — korxonada, bir tomondan, ishlab chiqarish vositalarini bozordan sotib olib iste'mol qilsa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarilgan tovarlarini bozorga olib chiqib sotadi. Masalan, un zavodi o'zi uchun kerakli bino, tegirmon uskunalari, bug'doyni va ishchi kuchini bozordan sotib oladi, ya'ni bozorda xaridor sifatida ishtirok etadi. Shu bilan birga, bug'doydan un ishlab chiqarib, uni bozorda sotadi, ya'ni bozorda sotuvchi sifatida ham qatnashadi.

Iste'molchilar, asosan aholi, o'zlari uchun kerakli iste'mol tovarlarini bozordan sotib oladi. Ikkinchi tomondan, aholi ishchi yoki xizmatchi sifatida korxonalarda mehnat qilib, evaziga maosh ko'rinishda pul oladi, ya'ni o'z mehnatini sotadi.



Davlat, jamiyatning boshqaruv organi va tabiiy resurslar egasi sifatida alohida o'rin tutadi. Shu sabab davlat bozorning uchinchi ishtirokchisi

sifatida alohida tushunchaga ajratiladi. Davlat ham bir tomondan tabiiy resurslarni, davlat idoralari va mahkamalarining xizmatlarini sotsa, ikkinchi tomondan davlat korxonalari ehtiyojlari uchun bozordan tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchi sotib oladi.

Shu tariqa, bozorning har uchala ishtirokchisi orasida "oldi-sotdi" jarayoni sodir bo'lib, bozor doimiy harakatda bo'ladi.

Buyuk Ipak yo'li

Ipak va chinni buyumlar bir necha asrlar davomida Xitoyning asosiy eksport tovarlari bo'lgan. Bu tovarlar bilan savdo-sotiq "Buyuk Ipak yo'li" deb atalmish karvon yo'li orqali amalga oshirilgan. Buyuk Ipak yo'li Yevropa va Yaqin Sharqni Uzoq Sharq mamlakatlari bilan Markaziy Osiyo orqali bog'lagan.

Buyuk Ipak yo'lining asosiy tarmog'i Shom (hozirgi Suriya) bandargohlaridan boshlanib, Bag'dod, Marv, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Yorkent, Xo'tan, Dun Xuan shaharlaridan o'tgan.

Turli xil tovarlar orilgan karvonlar nafaqat savdo-sotiqning rivojlanishiga, ayni paytda Buyuk Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlar o'rtasida madaniy aloqalarning kengayishiga va rivojlanishiga xizmat qilgan.

1. Bozorni tor ma'noda qanday tushunasiz?
2. Bozorda kimlarni uchratish mumkin?
3. Bozorda qanday jarayon yuz beradi?
4. Bozorni keng ma'noda qanday tushunish kerak?
5. Bozorning uchala ishtirokchisi orasidagi oldi-sotdi munosabatlarini tushuntiring.
6. Davlat o'z idoralari va mahkamalarining xizmatlari uchun aholidan qay tartibda haq oladi?

3.2. Bozorning turlari

Bozorlar sotiladigan tovarlar turlariga qarab har xil bo'ladi.

Aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar **iste'mol tovarlari** bozorida sotiladi.



Iste'mol tovarlari bozori.



Ishlab chiqarish vositalari bozori.

Biz yaxshi bilgan dehqon bozori, mashina bozori, kiyim-kechak va buyumlar bozori, turli-tuman do'konlar, supermarketlar, oshxona, sarta-roshxona, novvoyxona, ustaxonalar — jamiki maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari — iste'mol tovarlari bozorini tashkil qiladi.

Korxonalarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun zarur bo'ladigan asbob-uskunalar, bino-inshootlar, xomashyo va materiallar — **ishlab chiqarish vositalari bozorida** sotiladi.

Ishlab chiqarish vositalarining oldi-sotdisi asosan tovar birjalari va savdo firmalari orqali amalga oshiriladi.

Tovar birjalari tovarlarni katta-katta hajmda, ulgurji (ko'tarasiga) sotib oladigan va sotadigan savdo korxonalaridir.

Ishchi kuchi, mehnat ham maxsus tovar bo'lgani uchun o'z bozori bor. **Mehnat bozorida** ishchi kuchi sotiladi. Bunday bozorda aholini ishga joylashtirish bilan shug'ullanuvchi mehnat birjalari, korxonalarining ishga yo'llash bilan shug'ullanadigan bo'limlari faoliyat ko'rsatadi. Mehnat bozoriga mardikor bozori ham misol bo'la oladi.



Mehnat bozori.



Moliya bozori.

Pulni maxsus, hammabop tovar deb aytgan edik. Demak, uning ham o'z bozori bo'lishi kerak. Bunday bozor **moliya bozori** deb ataladi.

Moliya bozorida pullar qarzga beriladi yoki qarzga olinadi. Odatda bunday xizmatlar banklarda ko'rsatiladi. Moliya bozorida oddiy pullardan tashqari "**qimmatbaho qog'ozlar**" deb atalgan maxsus, ya'ni aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va h.k.lar bilan ham oldi-sotdi bo'ladi. Bu ish bilan fond birjalari shug'ullanadi. Bulardan tashqari moliya bozorida xorijiy davlat pullari — valutalar sotiladi va sotib olinadi.

Siz ko'cha-ko'ya valuta almashtirish shoxobchalarini ko'rgan bo'lsangiz kerak. Xuddi shu shohobchalarda xorijiy davlat pullari sotiladi va sotib olinadi.



Intellektual tovarlar bozori.

Intellektual tovarlar bozorida — aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar sotiladi. Bunday tovarlar ilmiy g'oyalar, san'at asarlari, texnik loyiha, kashfiyotlar, kino, konsert tomoshalari va boshqa aqliy mehnat bilan bog'liq xizmatlardan tarkib topadi (Intellekt — aql, zakovat degani).

Shu bilan birga, alohida olingan tovarlar bozorlari ham bo'ladi. Masalan, neft bozori, paxta bozori, g'alla bozori, rangli metallar bozori dunyo miqyosida juda katta o'rin tutadi.

Birjadagi "ayiqqlar" va "buqalar"

"Birja" so'zi "Birse" so'zidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi "hamyon" ni anglatadi. Birinchi birja Bryugge shahrida ochilgan. Tovar birjasida katta hajmdagi tovarlar sotuvga qo'yiladi. Bunda xaridor tovarning namunasiga oldi-sotdi shartnomasini tuzadi. Fond birjalarida esa qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'ladi. Valuta birjalarida esa turli davlat valutalari sotiladi va sotib olinadi. Bulardan tashqari xilma-xil tovarlar sotiladigan universal birjalar ham ko'p.

Birjalar "oldi-sotdi" jarayonida vositachi tashkilotdir. Ular sotuvchi bilan xaridor o'rtasida aloqalar o'rnatishga ko'maklashadi. Birjada tovarlarning ulgurji narxlarini shakllanadi.

Fond va valuta birjalarining oddiy dehqon bozoridagi kabi o'ziga xos "olib-sotararlari" bor. Ularga "buqalar" va "ayiqqlar" degan nomlar berilgan. Bu London fond birjalaridagi "olib-sotarlar"ga nisbatan qo'llangan. Qimmatli qog'ozlar narxining ko'tarilishini chamalab yoki payqab arzon paytida sotib olib, so'ng qimmat bo'lganda sotib foyda ko'ruvchilarni "buqalar" deb atashgan. Bunday laqab berilishiga ularning chayqovchilik faoliyati oqibatida qimmatli qog'ozlar narxi xuddi buqa shoxlari bilan ko'targandek qimmatlashishi sabab bo'lgan.

"Ayiqqlar" esa, aksincha, qimmatli qog'ozlarning narxi pasayishini kutib, ularni ma'lum muddatdan so'ng berish sharti bilan, hozirgi narxda shartnomalar tuza boshlashadi. Ular bu harakatlari bilan bozorda narxlarni ayiq kabi "bosishlari" bois, ularga "ayiqqlar" deb laqab qo'yishgan.



1. Qanday bozor turlarini bilasiz?
2. Iste'mol tovarlariga nimalar kiradi?
3. Iste'mol tovarlar bozorining qanday ko'rinishlari bor?
4. Ishlab chiqarish vositalari bozorida nimalar, qayerda sotiladi?
5. Tovar birjasi nima?
6. Mehnat bozori deganda nimani tushunasiz?
7. Moliya bozorida nima sotiladi?
8. Intellektual tovarlar bozorida sotiladigan tovarlarni sanang.

3.3. Narx



Sigirning
qiymati

= 300 ming so'm



Sigirning
narxi

Bu paragrafda tovarning narxi bozor bilan qanday bog'liq bo'lishi haqida gaplashamiz.

Aytaylik, fermer sigirini mol bozoriga sotish uchun olib chiqdi. U bir xaridor bilan savdolashib sigirini 300 ming so'mga sotdi.

Bozordagi bu jarayon natijasida shu sigirning tovar sifatidagi qiymati — 300 ming so'm pul bilan ifodalandi, ya'ni uning narxi belgilandi.

Demak, bozor tovarning narxini belgilar ekan.

Agar bozorda sotuvchilar ham xaridorlar ham ko'p bo'lsa, ular orasida **raqobat** vujudga keladi.

Sotuvchilar ham, xaridorlar ham ko'p bo'lgan bozor **erkin bozor** deb ataladi.

Erkin bozorda narx yuqorida ko'rganimizdek sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi raqobat natijasida shakllanadi.

Sotuvchi oz (bitta yoki bir nechta), xaridorlar esa ko'p bo'lgan bozor **monopollashgan bozor** deyiladi.

Bunday bozorda sotuvchi monopolistik qilib, raqobatni cheklaydi. Uning aytgani-aytgan, degani-degan bo'lib, narx shakllanishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi.

Shuningdek, xaridor ancha oz, ammo sotuvchilar ko'p bo'lgan bozor ham monopollashgan deyilaveradi. Bunday bozorda xaridor monopolist bo'lib, narx shakllanishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi.

Ba'zi tovarlar faqat bir korxonadan ishlab chiqarilishi mumkin. Tabiiyki, bunday tovarlar bozori o'z-o'zidan monopollashgan bo'ladi. Odatda bunaqa bozorlardagi narx davlat tomonidan jilovlanib, nazorat qilib turiladi. Mamlakatimizdagi monopollashgan bozorlarga paxta terish mashinalari, elektr energiyasi, neft va gaz mahsulotlari va boshqa ayrim tovarlar bozorlarini misol qilib keltirish mumkin.



Soliq kodeksi 197-moddasiga ko'ra, ishlab chiqarish, savdo-sotiq yoki mahsulotlarni chet eldan olib kelish (import) bilan shug'ullanuvchi firmalar, korxonalar qo'shilgan qiymat (narx) solig'i (QQS)ni to'lashlari lozim. Mahsulotni ishlab chiqarish, sotish yoki import qilishda ko'rilgan xarajatlarning mahsulot tannarxiga qo'shilishini siz yaxshi bilasiz. Aynan o'sha qo'shilgan summa — soliqliklar tilida qo'shilgan qiymat deyiladi. QQS aynan shu qo'shilgan qiymatdan undiriladi.



1. Tovar narxi nima?
2. Bozorning tovar narxini belgilashdagi rolini tushuntirib bering.
3. Erkin bozor deb qanday bozorga aytiladi?
4. Erkin bozorda narx qanday shakllanadi?
5. Monopollashgan bozorga ta'rif bering.
6. Monopollashgan bozorlarga misollar keltiring.

3.4. Chiqim va tannarx

Oldingi paragrafda tovar narxining bozorga bog'liq tomonlari haqida so'z yuritdik. Narx umuman olganda juda ko'p omillar asosida shakllanadi. Quyida biz tovar narxining tovarni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarga asosan shakllanishi xususida so'z yuritimiz.

Keling, shu maqsadda novvoyxonaning bir kunlik faoliyatini tahlil qilaylik. Aytaylik, novvoyxonada ikki kishi — novvoy va uning o'g'li ishlasin. Har kuni 50 000 so'mga bir qop un sotib olinib, undan xamir qoriladi. Xamirga jami 5 000 so'mlik xamirturush, yog', tuz, kunjut qo'shib 250 dona non yasaladi. Nonlarni tandirda pishirish uchun 3 000 so'mlik gaz sarflanadi. Maosh sifatida esa har kuni 10 000 so'm ajratiladi. Shunday qilib, agar bu chiqimlarni jamlaydigan bo'lsak, novvoy 250 dona non tayyorlash uchun jami 30 000 so'm sarflagan bo'ladi. Bu novvoyxonaning bir kunlik chiqimi bo'ladi.



Bitta non uchun esa novvoy o'rta hisobda $30\,000 \text{ so'm} : 250 \text{ dona} = 120 \text{ so'm}$ xarajat qiladi. Bitta nonni tayyorlash uchun sarflangan chiqim, nonning **tannarxi** deb ataladi.

Umuman olganda, katta korxonalarining chiqimi hisoblanayotganda bino va inshootlar, transport, asbob-uskunalar, energiya manbalaridan foydalanish bilan bog'liq boshqa yana bir qator sarf-xarajatlilar ham qo'shib hisoblanadi.

Korxonaning ma'lum davr ichida tovarlar ishlab chiqarish va sotish uchun ketgan jami xarajatlari miqdori **chiqim** deb ataladi.

Tovarlar miqdori odatda donalarda, tonna yoki kilogrammlarda, kilometr yoki metrlarda, litrlarda va boshqa birliklarda o'lchanadi. Masalan, yetishtirilgan paxta tonnalarda, ishlab chiqarilgan avtomashinalar donalarda, gazlamalar metrlarda, elektr energiyasi kilovatlarda o'lchanadi. Bir birlik tovarni ishlab chiqarish va sotish xarajati tovarning **tannarxi** deb ataladi. Tovarning tannarxi jami chiqimning ishlab chiqarilgan tovarlar miqdoriga bo'lib topiladi.

Tovarning
tannarxi

=

Chiqim

:

Tovarlar
miqdori

Misol uchun, to'qimachilik kombinati bir oyda 28000000 so'm chiqim qilib, 14000 metr gazlama ishlab chiqargan bo'lsin.

Bu kombinatda to'qilgan 1 metr gazlamaning tannarxi yuqoridagi qoidaga ko'ra,

$$\text{Tovarning tannarxi} = \text{Chiqim} : \text{Tovarlarni miqdori} =$$

$$= 28000000 : 14000 = 2000 \text{ so'mni tashkil qiladi.}$$

Aksincha, agar korxonada ishlab chiqarilgan tovarlar miqdori va tannarxi ma'lum bo'lsa, uning chiqimi

$$\text{Chiqim} = \text{Tovarlarni miqdori} \cdot \text{Tovarning tannarxi}$$

qoidaga ko'ra topiladi.

Misol uchun, oyoq kiyim fabrikasi bir oyda 1500 juft tufli ishlab chiqargan bo'lsin. Har juft oyoq kiyim tannarxi 6000 so'm bo'lsa, fabrikaning bir oylik chiqimi yuqoridagi qoidaga ko'ra:

$$\text{Chiqim} = \text{Tovarlarni miqdori} \cdot \text{Tovarning tannarxi} =$$

$$= 1500 \cdot 6000 = 9000000 \text{ so'mni tashkil qiladi.}$$



Birja — hamyon degani

Belgiyaning Bryugge shahrida yashagan savdogar Van-der-Bersning uyi oldida maydoncha bo'lgan ekan. Maydoncha tovarlar "oldi-sotdi"si bilan shug'ullanuvchilarga yoqib qolib, shu jarayon bilan bog'liq yig'inlar u yerda o'tadigan bo'lib qolgan. Savdogar uyining peshtoqida Van-der-Berslarning oilaviy tug'rosi — uchta hamyon rasmi tasvirlangan ekan. Charm hamyon flamanchada "bursa" deyilgan. Shu sababdan savdogarlar o'z yig'inlarini "bursa" deb atay boshlagan. Bu so'z keyinchalik "burja" va nihoyat "birja" deb o'zgarib ketgan. Shu-shu bunday yig'inlar — birja deb ataladigan bo'lgan.

Ravshanki, har bir korxonada foyda olish maqsadida faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun korxonada ishlab chiqarilgan tovarni tannarxida emas, balki tannarx ustiga qo'shimcha ustama narx qo'yib sotadi. Bunday narx **ishlab chiqaruvchi narxi** deyiladi.

Shuni eslatib o'tish lozimki, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi korxonalarining chiqimi deganda, tovarni sotib olish, transport, omborda saqlash, sotish bilan bog'liq qator xarajatlari tushuniladi.

Ko'p holda ishlab chiqaruvchilar ulgurji savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi korxonalarga tovarni ishlab chiqarish narxida sotadi. Ulgurji savdo tashkilotlari chakana savdo bilan shug'ullanuvchi do'konlarga **ulgurji narxda**, do'konlar esa tovarni aholiga **chakana narxda** sotadi. O'z-o'zidan ravshanki, tovarning ishlab chiqarish narxi tannarxidan, ulgurji narxi ishlab chiqarish narxidan, chakana narxi esa ulgurji narxidan yuqori bo'ladi.



1. Chiqim deb nimaga aytiladi?
2. Tovarning tannarxi nima va u qanday topiladi?
3. Novvoyxona misolida chiqim va tannarxni tushuntirib bering.
4. Chiqim yana qanday xarajatlardan tarkib topishi mumkin?
5. Tovarlar miqdori qanday kattaliklarda o'lchanadi?
6. Ulgurji va chakana narxlar bir-biridan nima bilan farq qiladi?

3.5. Daromad. Foyda va zarar

Yana oldingi paragrafdagi novvoyxona haqidagi misolga qaytaylik. Shunday qilib novvoy har kuni jami 30000 so'm chiqim qilib 250 ta non pishiradi. Har bitta pishirilgan nonning tannarxi 120 so'mni tashkil qiladi. Novvoy esa bozorda nonni 150 so'mdan sotadi. Hamma nonni sotib bo'lgandan so'ng uning qo'lida $250 \cdot 150 = 37500$ so'm jamlanadi. Bu novvoyning bir kunlik daromadi deb ataladi.

Shunday qilib novvoy bir kunda 30000 so'm chiqim qilib, 37500 so'm daromad qilayapti, ya'ni uning cho'ntagiga sarflagan puliga qaraganda $37500 - 30000 = 7500$ so'm ko'p pul tushayapti. Bu pul novvoyning bir kunlik foydasi deb ataladi.

Korxonaning ma'lum vaqt ichida ishlab chiqargan tovarlarini sotishdan tushgan tushum **daromad** deyiladi. Korxonaning ma'lum vaqt ichidagi daromadini topish uchun bu vaqt ichida sotilgan tovar miqdori sotilish narxiga ko'paytiriladi:

$$\text{Daromad} = \text{Tovarlar miqdori} \cdot \text{Tovarning narxi}$$

Agar korxonaning daromadi chiqimidan ko'p bo'lsa, korxonada **foyda** o'ladi. Foyda miqdori quyidagicha ko'ra topiladi.

$$\text{Foyda} = \text{Daromad} - \text{Chiqim}$$

Agar korxonaning daromadi chiqimidan kam bo'lsa, korxonada **zarar** ko'radi. Zarar miqdori quyidagicha ko'ra topiladi.

$$\text{Zarar} = \text{Chiqim} - \text{Daromad}$$

Misol uchun, tijoratchi 600 kg uzumni Parkent shahridan kilogrammini 500 so'mdan ulgurji narxda sotib olgan bo'lsin. Yo'lga 60000 ming so'm xarajat qilib, Toshkent shahriga olib keldi va kilogrammini 550 so'mdan chakana narxda sotgan bo'lsin. Bu holda tijoratchining chiqimi $600 \cdot 500 + 60000 = 360000$ so'mni tashkil qiladi. Daromad esa $600 \cdot 550 = 330000$ so'mni tashkil qiladi. Ko'rib turibsizki, tijoratchining daromadi chiqimidan kam. Demak, u zarar ko'rgan va bu zarar miqdori

$$\text{Zarar} = \text{Chiqim} - \text{Daromad} =$$

$= 360000 - 330000 = 30000$ so'mni tashkil qiladi.

Ravshanki, odatda har qanday korxonaning faoliyati foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Shu sababdan korxonada ishlab chiqargan mahsulotning tannarxi ustiga o'z foyda ustamasini qo'yib ulgurji narxda sotadi. Savdo tashkiloti ham tovarni sotib olgan ulgurji narxi ustiga, uni tashish va sotish xarajatlari qo'shishdan tashqari o'z foyda ustamasini qo'yib chakana narxda sotadi.



1. Daromad nima?
2. Qachon korxonada foyda ko'radi va u qanday topiladi?
3. Qachon korxonada zarar ko'radi va u qanday topiladi?
4. Biror korxonada misolida foydani hisoblab ko'rsating.

5. Biror korxonada zararni hisoblang.
6. Tijoratchi zarar ko'rishining sabablari nimada deb o'ylaysiz?

3.6. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Xuddi odamlar (jismoniy shaxslar) kabi yuridik shaxslar, ya'ni korxonalar, firmalar hamda tashkilot va muassasalar ham daromadlaridan soliq to'laydilar. Bu soliq — yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i deb ataladi.

Yuridik shaxslar daromadi (foydasi)ga solinadigan soliq stavkalari (2008-yil)

№	To'lovchilar	Soliq stavkasi (% da)
1	Yuridik shaxslar (2-3 bandlaridan tashqari)	10
2	Auksionlar o'tkazishgan, gastrol konsert-faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar, shuningdek norezidentlarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
3	Tijorat banklari	15
4	O'zi ishlab chiqargan tovarlarni eksport qiluvchi korxonalarga: – sotuvning umumiy hajmida eksport ulushi 15–30%gacha bo'lsa – agar 30% va undan ko'p bo'lsa	belgilangan stavka 30%ga kamayadi stavka 50%ga kamayadi

Korxonalarning aksiyalar, omonat foizlari va boshqa qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlari bo'lishi mumkin. Ushbu daromadlarning 10 %i soliqqa to'lanadi. Bundan tashqari soliqlarning alohida turlarini to'lovchi korxonalar ham bo'ladi. Bunday korxonalarni yagona soliq to'lovchini to'lovchi:

- mikrofirma va kichik korxonalar;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
- yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jalik korxonalari tashkil etadi.

Bu korxonalar o'zlari uchun ixchamlashtirilgan soliqni to'laydilar.

Yagona soliq to'lovini faqat kichik korxonalar to'laydi.

Yagona soliq to'lovi stavkalari (2008-yil)

№	To'lovchilar	Sotilgan tovar va xizmatlar hajmidan (% da)
1	Barcha sohalarga oid korxonalar, 3–5 bandlaridan tashqari	8
2	Komputer dasturlarini ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar	5
3	Qishloq xo'jaligi korxonalari (yagona yer solig'i to'laydiganlaridan tashqari)	6
4	Ommaviy tomosha, gastrol-konsert kabi shou-biznes bilan shug'ullanuvchi	30
5	O'zi ishlab chiqargan tovarlarni eksport qiluvchi korxonalar : – sotuvning umumiy hajmida eksport ulushi 15–30%gacha bo'lsa – agar 30% va undan ko'p bo'lsa	belgilangan stavka 30% ga kamayadi stavka 50%ga kamayadi



... 1998-yil yuridik shaxslardan olinadigan soliq stavkasi 36%, 2001-yil 26%, 2002-yil 24%, 2003-yil 20%, 2004-yil 18%, 2005-yil 15%, 2006-yil 12%, 2008- yil 10% qilib belgilangan...

Protez mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, nogironlar uchun xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar hamda nogironlar jamoat birlashmalari kabi muassasalar daromad solig'idan to'liq ozod etiladi.

1. Yuqoridagi ma'lumotlardan nimalarni tushundingiz?
2. Nima maqsadda soliq miqdori kamaytirilishi mumkin?
3. Yuqoridagi tashkilotlar nima uchun daromad solig'idan ozod etilgan deb o'ylaysiz?

Yuridik shaxslar hisoblanuvchi ayrim korxonalar **yalpi daromad solig'ini to'laydilar**. Bular ulgurji, chakana savdo (do'kon, minimarket, supermarket) umumiy ovqatlanish korxonalari (kafe, oshxona va restoranlar kabi)dir. Qonunga ko'ra, bunday korxonalar yalpi daromad solig'i bilan birga mol-mulk solig'ini ham to'laydilar. Yalpi daromad solig'i korxonaning yalpi daromadi hajmidan to'lanadi.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadiga taqaballashtirilgan soliq stavkalari (2008-yil)

No	To'lovchilar	Soliq stavkasi, %
1	Umumiy ovqatlanish korxonalari:	10
	ulardan:	
	ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatuvchi ovqatlanish korxonalari	8
2	Chakana savdo korxonalari(4-banddagilardan tashqari):	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p bo'lgan shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li joylarda	1
3	Ulgurji savdo korxonalari(4-banddagilardan tashqari):	5
4	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p bo'lgan shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li joylarda	1



1. Qanday yuridik shaxslar daromad solig'ini to'laydilar?
2. Qanday korxonalar uchun daromad solig'ining stavkasi 30%ga pasaytiriladi?
3. Qanday yuridik shaxslar daromad solig'idan to'liq ozod etiladi?
4. Qanday korxonalar uchun yagona soliq stavkasi 30% qilib belgilangan?
5. Sizningcha, nima uchun kompyuter dasturlarini ishlab chiqaruvchilarga yagona soliq stavkasi 5% qilib belgilangan? Javobingizni asoslab bering.

IV BOB



OILA IQTISODIYOTI

4.1. Oila

Oila bo'lib yashash iqtisodiy nuqtayi nazardan har bir kishi uchun ham tejamli, ham har tomonlama qulaydir.

Haqiqatan, oilada har bir kishi o'zi uchun alohida televizor, alohida kir yuvish mashinasi, alohida sovutgich va boshqa uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olmaydi. Bunday uy-ro'zg'or buyumlarining bittasi hamma uchun yetarli. Shu sababdan oila bo'lib yashash — oila a'zolarining pul mablag'ini tejaydi.

Ikkinchi tomondan, oilada barcha yumushlar o'zaro taqsimlangan bo'ladi. Kimdir bozor-o'char qiladi, kimdir ovqat pishiradi, kimdir tozalikka qaraydi va hokazo. Juda bo'lmaganda, bu ishlar birgalikda bajariladi. Natijada vaqt tejali, ehtiyojlarni to'laroq qondirish imkoni tug'iladi. Odatda oilada erkak kishilar og'ir jismoniy ishlarni bajaradilar, ishlab pul topib oila ehtiyojlari uchun kerakli narsalarni uyga olib keladilar. Ayollar ham ishlalalarda, uy-ro'zg'or ishlarini o'z zimmalariga olishadi. Farzandlar esa ularga bu ishlarda yordam berishadi. Shu sabab oila bo'lib yashash oila a'zolarining vaqtini tejaydi, ularga kundalik ehtiyojlarini birgalashib to'laroq qondirish imkoni va yana boshqa qulayliklarni yaratadi. Demak, oila bo'lib yashash eng avvalo hayot taqozosi bo'lsa, ikkinchidan u iqtisodiy jihatdan ham qator afzalliklarga ega ekan.



1. Odamlarni oila-oila bo'lib yashashga nima taqozo etadi?
2. Oila bo'lib yashash iqtisodiy nuqtayi nazardan qanday afzalliklarga ega?
3. Oila bo'lib yashashning tejamli ekanligini misollarda tushuntiring.

4.2. Oilaviy mulk va boylik

Oilangizda uy-joy, mebel, televizor, muzlatgich, idish-tovoq kabi shunday narsa va buyumlar borki ularga butun oila a'zolari egalik qiladi. Oilangizga qarashli bunday narsa va buyumlar **oilaning mulki** hisoblanadi. Oilada ulardan oilaviy ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladi.

Oilaning boyligi nafaqat oilaga qarashli mulk va pul mablag'larining ko'p yoki kamligi bilan, balki oila a'zolarining qanchalik o'z ehtiyojlarini qondirishi bilan o'lchanadi.

Siz ertaklarda o'qigan xasis boy to'plaganini xumga solib yiqqani bilan bu boyliklardan o'zi foydalanmasa, u boy hisoblanmaydi, albatta.

Har bir kishi bu dunyoda **boylik** orttirish uchun, o'zi va oilasining ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun harakat qiladi. Bu o'rinda boylik deganda faqat **moddiy boyliklar** emas, balki **ma'naviy boyliklarni** ham tushunish kerak.

Kishining ma'naviy boyligi deganda uning bilimi, ma'lumoti, dunyoqarashi, malakasi, hunari, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarining hammasi birgalikda tushuniladi.



Soliq kodeksi 312-moddasida ko'ra, korxonalar Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlardan pensionerlarga pensiyalar to'lanadi.



1. Shaxsiy mulk deganda nimani tushunasiz?
2. Oilaviy mulkka nimalar kiradi?
3. Qanday oila boy hisoblanadi?
4. Qanday boyliklarni bilasiz?
5. Ma'naviy boylik deganda nimani tushunasiz?
6. Ma'naviy boylikning ahamiyatini misollarda tushuntiring.

4.3. Oila daromadlari

Boylik osmondan tushmaydi. Uni har bir kishi o'zi, o'z bilimiga tayanib o'z qo'llari bilan yaratadi. Oila boyligining ko'payishi oila a'zolarining daromadlari miqdoriga bog'liq bo'ladi. Kishining ma'lum vaqt davomida (bir oyda yoki bir yilda) ishlab topgan yoki qo'lga kiritgan pul mablag'lari uning **daromadi** deb ataladi (Korxonada daromadi bilan aralashtirmaslik lozim).

Oila a'zolarining daromadi qancha ko'p bo'lsa, oila boyligi ham shuncha ko'payadi.

Oila daromadini oila a'zolarining ish haqi, pensiya, stipendiya, mukofot va boshqa daromadlari tashkil qiladi.

Ota-onangiz ish joyidan ish haqi, bobongiz va buvingiz — pensiya, kollej yoki oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan aka-opalaringiz — **stipendiya**, vaqtinchalik ishlamay, chaqalog'ini parvarish qilayotgan kelinoyingiz **nafaqa** oladi. Agar oilada yozuvchi, rassom, ixtirochi kabi ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi a'zolar bo'lsa, ularning daromadi **gonorar** bo'lishi mumkin.

Ish haqi bajarilgan ish uchun korxonadan to'langan pul bo'lib, u haqda oldingi boblarda so'z yuritgan edik. Oila daromadining asosiy qismini ish haqi tashkil qiladi.

Har bir ishlovchi butun ish faoliyati davomida, ish haqining bir qismini pensiya jamg'armasiga o'tkazib, jamg'arib boradi. Vaqt o'tishi bilan ishlovchi qarib ishga layoqatsiz bo'lib qolganda, unga ana shu jamg'arma hisobidan **qarilik pensiyasi** — har oyda ma'lum miqdorda pul berib turiladi. Shuningdek, nogiron kishilarga davlat yoki korxonadan yordam puli — **nogironlik pensiyalari** beriladi.

Stipendiya esa talabalarga o'qish davrida berib turiladigan yordam pulidir. Stipendiya davlat yoki korxonalar tomonidan to'lanadi. Davlat faqat puxta bilimga ega bo'lgan, yaxshi o'qiydigan talabalarga stipendiya beradi. Chunki xuddi shu talabalardan kelajakda davlatga ko'proq naf tegadi.

Nafaqalar kasallik yoki boshqa sabablarga ko'ra vaqtincha ishlay olmaydigan kishilarga, ko'p bolali yoki kam ta'minlangan oilalarga davlat va korxonadan beriladigan yordam pulidir.



1. Daromad deb nimaga aytiladi?
2. Daromadning qanday turlarini bilasiz?
3. Qarilik uchun beriladigan pensiyani davlat yoki korxonadan beriladigan yordam desak bo'ladimi?
4. Stipendiya va nafaqalar kimlarga beriladi?

4.4. Boylik — daromad manbayi

Biz oldingi paragraflarda daromadning boylik manbayi ekanligi haqida, daromad qancha ko'p bo'lsa, boylik ham shuncha ko'payishi haqida gapirgan edik. Endi boylik ham daromadni ko'paytirishi mumkinligini ko'ramiz.

Xo'sh, qanday qilib boylik daromad manbayi bo'lishi mumkin? Buning uchun quyidagi vaziyatlarni ko'rib chiqaylik.

1-vaziyat. Aytaylik, xonadonda yashaydigan bir oila hovli sotib olib ko'chib chiqdi. Xonadonni esa vaqtinchalik yashab turish uchun bir yilga birovga ijaraga berishdi. Ijaraga olgan kishi bilan bu xonadonda yashayotgani uchun har oyda ma'lum miqdorda pul — **ijara haqi** to'lab turishiga kelishildi.

Demak, oilaning mulki, boyligi hisoblanmish xonadon oila uchun har oyda ijara haqi ko'rinishda daromad keltiradigan manba bo'lib qoldi.

2-vaziyat. Bir kishi "DAMAS" avtomobili sotib olib, uni tanishiga ijaraga berib qo'ydi. Tanish haydovchi mashinada yo'lovchi tashib, topgan pulidan ma'lum miqdorda ijara haqi to'laydigan bo'ldi.

Bu holda ham boylik hisoblanmish mulk qo'shimcha daromad manbayiga aylandi.

3-vaziyat. Aytaylik, siz 10000 so'm miqdorda pul jamg'arib uni bankka qo'yingiz. Bank bu pulni tadbirkorlik vositasida aylantirib ko'paytirdi va topgan foydasidan ulush qo'shib 12000 so'm qilib qaytaradigan bo'ldi. 2000 so'm qo'shimcha haq — **bankning folzi** deb ataladi.

Demak, sizning jamg'argan pulingiz, ya'ni boyligingiz bir oydan so'ng sizga foiz ko'rinishda daromad keltiradigan bo'ladi.

4-vaziyat. Eshmatovlar oilasining 500000 so'm miqdorda oilaviy jamg'armasi bor edi. Ular oilaviy firma ochib, tadbirkorlik bilan shug'ullana boshladi va o'z pullarini firmada ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga sarflashdi. Yil yakuniga ko'ra firma 1100000 so'm daromad qildi. Bu pullarning 500000 so'mi oila jamg'armasi ekanligini hisobga olsak, yil yakuniga ko'ra Eshmatovlar oilasi 600000 so'm miqdorda foyda ko'rgan bo'lib chiqadi.

Eshmatovlar oilasining 500000 so'mlik jamg'armasi ularning ishbi-larmonliklari natijasida daromad manbayiga aylanib, tadbirkorlik foydasi ko'rinishida 600000 so'm daromad qilish imkonini berdi.

Demak, oilaning boyligi **tadbirkorlik foydasi** ko'rinishdagi daromad ma'nbayi bo'lishi ham mumkin ekan.

Shunday qilib, oila daromadlarini ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar bilan bir qatorda ijara haqi, bank foizi va tadbirkorlik foydasi ko'rinishidagi daromadlar ham tashkil qilar ekan.

Nargizaning oilasi 8 kishidan iborat. Nargizaning dadasi 130000 so'm ish haqi oladi. Onasi Nargizaning yosh ukasini parvarish qilayotgani

uchun vaqtincha ishlamaydi va davlatdan 40000 so'm nafaqa oladi. Buvisi esa 45000 so'm pensiya oladi. Nargizaning opasi kollej talabasi bo'lib, u 25000 so'm stipendiyaga oladi. Nargizalarning shaxsiy do'koni bo'lib, uni qo'shnilariga ijaraga berishgan va har oyda undan 60000 so'm ijara haqi olishadi. Bularning hammasini jadval ko'rinishda yozib jamlab chiqsak, Nargiza oilasining o'tgan oydagi daromadi 300000 so'mni tashkil qilishini topamiz:

№	Nargiza oilasining daromadlari	So'm
1.	Otasining ish haqi	130000
2.	Onasining nafaqa puli	40000
3.	Buvisining pensiyasi	45000
4.	Opasining stipendiyasi	25000
5.	Ijara haqi	60000
JAMI:		300000

Demak, oila daromadi qancha ko'p bo'lsa, boyligi ham shuncha ko'payadi. Aksincha, boylig' to'g'ri ishlatilsa, o'z navbatida u daromadni ko'paytiradi.



1. Ijara deganda nimani tushunasiz?
2. Ijara haqi nega to'lanadi?
3. Jamg'arilgan pul qo'shimcha daromad olib kelishi mumkinmi?
4. Bank foizi nima uchun va qaysi manbadan to'lanadi?
5. Tadbirkorlik foydasi nima?
6. Oilangizning daromad manbalarini sanang.

4.5. Oila xarajatlari

Oilaviy xarajatlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish;
- kiyim-kechak va oyoq kiyim sotib olish;
- xo'jalik, madaniy-maishiy ehtiyoj mollari sotib olish;

- uy-joy, telefon, gaz, elektr energiyasidan foydalanganlik va maishiy xizmat uchun to'lovlar;
- transport xarajatlari;
- madaniy hordiq va dam olish xarajatlari;
- daromad , mulk va boshqa soliq to'lovlari;
- davolanish xarajatlari;
- ta'lim va kasb hunar o'rganish xarajatlari;
- uy-joy sotib olish yoki qurish, ta'mirlash xarajatlari;
- avtomobil, qimmatbaho uy jihozlari va buyumlar sotib olish;
- to'y va har xil marosimlar o'tkazish xarajatlari;
- qarzlarni qaytarish;
- favqulodda xarajatlar (mehmon kutish va boshqalar).

Ko'rib turganingizdek, bu oilaning jami daromadlari miqdori, jami xarajatlari miqdoriga teng.

Bordiyu, oilaning daromadlari xarajatlaridan ko'p bo'lsa, nima ro'y beradi? Bu holda qanchadir pul ortib qoladi. Uni to'y qilish, yangi imorat qurish, yoki qimmatbaho buyum, mebel, shaxsiy



komputer, avtomobil kabi katta miqdorda pul talab qiluvchi buyumlarni sotib olish uchun yoki tadbirkorlik qilish maqsadida jamg'arish mumkin.



1. Boy bo'lish uchun ko'p daromad olishning o'zi yetadimi?
2. Oila xarajatlari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
3. Oilaning xarajati daromadidan ortib ketsa, nima bo'ladi?
4. Oilaning daromadi xarajatidan ko'p bo'lsa, unda-chi?

4.6. Oila budjeti

Nargizalar oilasining kelgusi oydagi daromadlari oldingi oyda qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qoladi, xarajatlarida esa o'zgarishlar bo'lib, ular quyidagi jadvalda berilganicha bo'lishi kutilayapti.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, oilaning kelgusi oydagi xarajatlari daromadlaridan ko'p. Nima qilish kerak?

Oila daromadlari	So'm	Oila xarajatlari	So'm
Dadasining ish haqi	130000	Oziq-ovqat sotib olish	150000
Onasining nafaqa puli	40000	Kiyim-kechak sotib olish	20000
Buvisining pensiyasi	45000	Transport xarajatlari	30000
		Uy-joy va maishiy xizmatlar uchun to'lovlar	30000
Opasining stipendiyasi	25000	Madaniy-maishiy ehtiyoj mollari sotib olish uchun	20000
Ijara haqi	60000	Madaniy hordiq xarajatlari	10000
Soliqlar	20000	Davolanish xarajatlari	30000
JAMI:	300000	JAMI:	310000

Bu muammoni yechishning uch yo'li bo'lib, ulardan birini tanlashga to'g'ri keladi. Birinchisi — birovdan qarz olish. Ikkinchisi — daromadlarni oshirish. Uchinchisi esa xarajatlar ichidan eng zarurlarini tanlab ajratib, xarajatlar miqdorini qisqartirish. Birovdan qarz olinsa so'ng uni qaytarish bor. Daromadni oshirishning hozircha imkoni yo'q. Shu sababdan bu oila uchinchi yo'lni tutadi. Albatta, xarajatlar orasida oziq-ovqat, davolanish, transport xarajatlari, uy-joy, maishiy xizmatlar uchun to'lovlar va soliqlar — birinchi darajali, ularni qisqartirishning imkoni yo'q. Lekin madaniy xordiq xarajatlarni, keyinroqqa surish, kiyim-kechak bilan, madaniy-maishiy ehtiyoj mollarini sotib olishni esa hozircha 5000 so'mga qisqartirib turish mumkin. Agar shunday qilinsa, daromad va xarajat muvozanat holatga keladi va bu quyidagi jadvalda aks etadi.

Mana shu jadval **oila budjeti** deb ataladi. Demak, oila budjeti oilaning kelgusi davr (bir oylik yoki bir yillik) daromadlari hisoblangan va xarajatlari rejalashtirilgan jadvaldan iborat ekan.

Oila daromadlari	So'm	Oila xarajatlari	So'm
Dadasining ish haqi	130000	Oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish	150000
Onasining nafaqa puli	40000	Kiyim-kechak sotib olish	15000
Buvasining pensiyasi	45000		

Ijara haqi	60000	Transport xarajatlari	30000
Opasining stipendiyasi	25000	Uy-joy maishiy xizmatlari uchun to'lovlari	30000
		Madaniy maishiy ehtiyoj mollari sotib olish uchun	15000
		Davolanish	30000
		Soliqlar	20000
JAMI:	300000	JAMI:	290000

Oila shu jadval — budgetga qarab o'zining kelgusi davrdagi faoliyatini, aniqrog'i kutilayotgan daromadlariga qarab xarajatlarini amalga oshirishi bu oilada iqtisod to'g'ri yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi.

Oilalarning ehtiyojlari ham, daromad va xarajatlari ham har xil bo'lgani uchun budgetlari ham turlicha bo'ladi.

Agar oila budgetida jami daromad jami xarajat miqdoridan ko'p bo'lsa, budgetda mablag' ortib qolib, oilada bu mablag'ni jamg'arish imkoniyati tug'iladi.

Agar oila budgetida jami daromad jami xarajattan kam bo'lsa, budget kamomadi hosil bo'ladi. Bu holda qarz olish yoki kelgusi davr xarajatlarini kamaytirish kerak bo'ladi, yoki daromadlarni oshirishga to'g'ri keladi.

Jami daromad va xarajat miqdorlari o'zaro teng bo'lsa, oila budgeti muvozanatlashgan deyiladi. Shunday qilib, oila budgeti oila iqtisodining o'ziga xos ko'zgidir. Uni to'g'ri yuritib borish oila farovonligiga asos bo'ladi.



1. Oila budgeti nima?
2. Oila budgeti nima uchun kerak?
3. Budgetlar qanday turlarga bo'linadi?
4. Nargiza oilasining budgeti dastlab qanday edi?
5. Sizningcha, Nargiza oilasining budget kamomadini bartaraf qilish uchun yana qanday imkoniyatlar bor edi?